

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 183 (1244), 2024-yil 10-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

G‘OLIBLIK, G‘ALABA TUYG‘USI
QONIMIZDA BORYangi O‘zbekiston tarixining chinakam
YANGI SAHIFALARI OCHILDI

Har bir inson tug‘ilishi, uning ongi, fikrlash uhdasi, his-tuyg‘ulari bilan qudratli mo‘jizadir. Agar bu haqda teran tahlil bilan o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, hayotning har soniyasi naqadar qadrli, o‘tayotgan fursatlar ulug‘ ne‘mat ekani anglashiladi. Bunday yetuklik har bir insonda shakllanib, mohiyatan birlashgan jamiyatda milliy taraqqiyot hodisasi yuzaga chiqa boshlaydi. Aksincha esa inqiroziy holat paydo bo‘ladi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: bugun biz qaysi toifaga mansubmiz? Nekbinimizmi?

Aslini olganda, har narsani yaxshi tomondan ko‘ruvchi, kelajakka ishonuvchi, optimist jamiyatdagina islohotlar amalga oshiriladi va eng muhimi, ular samarali kechadi.

Parijda bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan tarixiy g‘alabalar cho‘qqisida turib, xayolimizdan beixtiyor ana shu o‘ylar o‘ta boshladi. Zero, bu ikki voqealik o‘zaro uyg‘unlashuv mohiyatiga egaki, bunga mulohazalarimiz davomida hali to‘xtalamiz.

UCHINCHI RENESSANSNING
YORQIN MUJDALARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev g‘olib atletlarimiz bilan uchrashuvdagi nutqida bu tarixiy g‘alaba yangi O‘zbekiston yoshlari qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir marta amalda namoyish etgani, bunday yirik xalqaro musobaqada dunyodagi har bir



mamlakatning sport sohasiga berayotgan e‘tibori, millat va xalqning jismoniy va ma‘naviy salohiyati yaqqol namoyish bo‘lishini alohida e‘tirof etdi.

O‘zbekistonlik atletlarning Olimpiya o‘yinlaridagi natijalari haqida yozgan “Financial Times” nashri Olimpiya medallari, mamlakatning sport olamida erishayotgan yutuqlari davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini bildiradi, deya ta’kidladi.

Bu o‘rinda alohida tahlil qilib, fikriy vujudimizga singdirib olish kerak bo‘lgan ikki muhim ta’kid bor.

Birinchi ta’kid — millat va xalqning jismoniy va ma‘naviy salohiyati yaqqol namoyish bo‘lishi.

Ikkinchi ta’kid — davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasi.

Yaqinda bir davrada Uchinchi Renessans hodisasi va uning ilk mujdalari nimalarda namoyon bo‘layotgani haqida musohaba

yurib qoldi. Fikrlar turfa edi. Ammo shu kunlarda o‘yimizga bir jiddiy to‘xtam kelib turibdi. Gap shundaki, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan va umuman, keyingi yillarda turli sohalarida yangi O‘zbekistonimiz yoshlari qo‘lga kiritayotgan olamshumul yutuqlar oldimizga qo‘ygan ulug‘ maqsad — Uchinchi Renessans yo‘lidagi yorqin mujdalardan biri emasmi axir?!

▶ Davomi 3-betda

YANGI REKORD, YANGI MARRALAR BAYRAMI

Muzaffar paralimpiyachilarimiz munosib kutib olindi



Fransiya poytaxti Parijda bo‘lib o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari xuddi XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida bo‘lgani kabi O‘zbekiston jamoasining tarixiy g‘alabasi — medallar jamg‘arish bo‘yicha 168 davlat o‘rtasida 13-o‘rin natijasi bilan yakunlandi.

Kecha, 9-sentabr kuni O‘zbekiston Paralimpiya o‘yinlari tarixida yangi rekord natija — 10 oltin, 9 kumush, 7 bronza — jami 26 ta medal qo‘lga kiritgan matonatli sportchilarimiz yurtimizga qaytib keldi. Ularni Toshkent xalqaro aeroportida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N.Ismoilov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov, davlat va jamoat arboblari, sportchilarning ot-onalari, yaqinlari, keng jamoatchilik vakillari tantanali kutib oldi.

▶ Davomi 6-betda

O‘ZBEKISTON DUNYO
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA
YETAKCHI DAVLATLARDAN BIRIGA
AYLANMOQDA

So‘nggi yillardagi raqamlar ham shuni ko‘rsatyapti.

Birgina o‘tgan yili mamlakatimiz to‘qimachilik sanoatida 75 dan ortiq davlatga 3,5 milliard dollarlik mahsulot eksport qilindi. 2026-yilga borib ushbu hajmni 6,5 milliard dollardan oshirish reja qilingan. Yevropa bozoriga mahsulot chiqarishda ham to‘qimachilik sanoatimiz yetakchilik qilib, jahonda o‘zining brendlari bilan tanilmoqda. Hatto xorijlik mutaxassislar O‘zbekistonning dunyo to‘qimachilik ta‘minoti zanjiridagi o‘rni oshib borayotganini ta’kidlayapti.

▶ Davomi 2-betda

IPOTEKA KREDITI
OLISH OSONLASHDI, TO‘LASH-CHI?!

4

PARIJDAN TARALDI
O‘ZBEKNING NURI“Parij-2024” Paralimpiya
o‘yinlari g‘olib va sovrindorlariga

Xushxabar muborak o‘zbek eliga,
Shukrin nurin to‘kar ochgan qo‘liga.
Shodligi sig‘maydi bugun diliga,
Quvonch qo‘sha kelsa, qutlaging kelar,
Qadding tutib, qadring butlaging kelar.

Hech qachon so‘nmasin millatning qo‘ri,
G‘oliblik sururi, mardlik sururi,
Parijdan taraldi o‘zbekning nuri,
Shoirman — bu baxtni qog‘ozga soldim,
Ko‘klagan ko‘nglimni parvozga soldim.

Haq degan bandasin qo‘llaydi Xudo,
Asila nigohi ming sog‘dan a‘lo,
Olamga taraldi rekorddan sado,
Tarix daftariga bitildi mangu,
Birinchi oltinning sohibasi u!

Qudratilla qudratin ko‘rsatgan o‘g‘lon,
Yorqinbek yurt ahlin yayratgan o‘g‘lon,
Elbek madhiyamiz yangratgan o‘g‘lon.
Bu ulug‘ kunlarni kim qilmas orzu,
O‘zbek o‘g‘lonlarin nasibasi u.

Asadbek alplarning arsloni bo‘ldi,
G‘oliblik rubtasi, unvoni bo‘ldi,
Orzu osmonining narvoni bo‘ldi.
Butun jahon bilsa o‘zbek nomini,
Biz nega tutmaylik quvonch jomini!

Husniddin dunyoga dovruc sololadi,
Uch karra olimpning oltinin oldi,
Qoldi u, o‘zbekning qalbida qoldi.
Hayratga solganda jumla jahonni,
Nechun sharaflamay bunday o‘g‘lonni?!

Tokio rekordin yangilab qo‘ygan,
Boburlar azaldan Vatanni suygan,
Sherzod ham shu quvonch nash‘asin tuygan,
Nuriga to‘ldirib turgan maydonin,
Boshiga ko‘tardi millati shonin.

Tolibboy rekordi Tangri tuhfası,
Nurxonni nur qildi g‘olib lahzasi,
O‘n bora tovlandi oltin halqasi,
Yurtboshi matlabin yangratdingiz siz,
Matonat maktabin yaratdingiz siz!

Kumush sohiblarin kuylamay bo‘lmas,
Ularning ko‘ngliga bo‘ylamay bo‘lmas,
Guljan, Kubaroni siylamay bo‘lmas,
Ko‘kka sig‘may qolar Serveri borlar,
Ziyoda ibratin ziyosi porlar.

Kumushxon kumushin yotga bermadi,
Ro‘za shohligini motga bermadi,
Kenjatoy Shahina chetda turmadi,
Millatim oylari — oydin oylarim,
Sizga ta‘zimdami Kumushoylarim.

Arpami, bug‘doymi — bari don axir,
Bronza shodasi, bu ham shon axir,
Minglab raqiblarga bu armon axir,
Keling, eldoshlarim, qutlang o‘shqo‘llab,
G‘oliblar baxtini, umirini tilab.

Ilk medal sohibi Muslima edi,
Temir va Uchqunlar safdamiz dedi,
Mohigul — el qizi el g‘amin yedi.
Ovro‘poda o‘zbek shitobi porlar,
She‘r bitsam so‘zimming oftobi porlar.

Yurtboshi qutlovi — yurtning quvonchi,
Xalqning iftixori, xalqning ishonchi,
Suhbatı ko‘zlardan tomdirdi tomchi,
Millat ko‘ksidagi tog‘in xush ko‘rdik,
Shodlikka sig‘magan chog‘in xush ko‘rdik.

Yangi O‘zbekiston — yangi shon bilan,
Kun sayin yuksalar pok imon bilan,
Bellashib turibdi bor jahon bilan,
Jahon ham tan olib evrilgani bu,
Siyosat mehrga yo‘g‘rilgani bu.

Shunchaki kerilmas o‘zbeklar hech vaqt,
Halollik ularga bobomeros ahd,
Ikki olimp tutgan Parijdagi taxt,
Odil niyatining ijobati bu,
Oqil rahnamosin saodati bu!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

O‘ZBEKISTON DUNYO TO‘QIMACHILIK SANOATIDA YETAKCHI DAVLATLARDAN BIRIGA AYLANMOQDA

Davlatimiz rahbari o‘z tabrigida sohadagi islohotlar haqida alohida to‘xtalar ekan, mamlakatimiz to‘qimachilik sanoatida barqaror qonunchilik bazasi yaratilgani, investitsiyaviy muhit yaxshilangani, yangi texnologiyalar joriy etilgani natijasida paxta tolasini qayta 2017-yildagi 40 foizdan 100 foizga yetganini ta’kidlagan.

Boshlanishi 1-betda

Bu ularning nafaqat yurtimizga investitsiya kiritish, balki paxtani yetishtirishdan to qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonni amalga oshirishga qaratilgan o‘ziga xos tajribasini o‘rganish, o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda. Shu kunlarda dunyo to‘qimachilik sanoatining ko‘plab taniqli vakillari, soha yetakchilarini yurtimizda jamlagan sabab ham shu bilan bog‘liq.

Ko‘hna Samarqand zamini 8-10-sentabr kunlari nufuzli tadbir — Xalqaro to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi (ITMF) hamda Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi (IAF)ning “Innovatsiyalar, hamkorlik va tartibga solish — to‘qimachilik sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarishining harakatlantiruvchi kuchlari” mavzusidagi yillik konferensiyasiga mezbonlik qilmoqda. Shu munosabat bilan jahon to‘qimachilik sanoatining mashhur ishbilarmonlari, taniqli brend va kompaniyalar, moliya institutlarining 500 dan ortiq vakillari Samarqandga jam bo‘lgan.

9-avgust kuni anjumaning tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman qatnashchilariga tabrigini O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari J.Xo‘jayev o‘qib eshittirdi.

Davlatimiz rahbari o‘z tabrigida sohadagi islohotlar haqida alohida to‘xtalar ekan, mamlakatimiz to‘qimachilik sanoatida barqaror qonunchilik bazasi yaratilgani, investitsiyaviy muhit yaxshilangani, yangi texnologiyalar joriy etilgani natijasida paxta tolasini qayta ishlash

2017-yildagi 40 foizdan 100 foizga yetganini ta’kidlagan.

Albatta, xalqaro hamkorlik sohada juda muhim. Xorijlik ishbilarmonlarni esa shunchaki qiziqtirib bo‘lmaydi. Ularning o‘zi o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlariga ijobiy baho beryapti, sifat borasidagi yuqori o‘shishni kuzatyapti. Milliy mahsulotlarimizga jahon bozorida talab ortib, xorij brendlari yurtimizda ish boshlayotgani buning isboti. Yirik tadbirlar ana shunday hamkorliklarni yanada kengaytiradi.

Xalqaro anjuman beqiyos Samarqand zaminida o‘tayotgani ham bejiz emas. Bu shahar



qadimdan Buyuk ipak yo‘li durdonasi sifatida tanilgan. Bugungi kunga kelib esa to‘qimachilik sanoatidagi yirik tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilar diyoriga aylanmoqda. Umuman, yurtimizning har bir joyida to‘qimachilik sanoati yangi bosqichga chiqib boryapti.



— Xalqaro anjumaning sababchilari bo‘lgan ikkita yirik uyushma dunyoning 82 foiz to‘qimachilik korxonalarini o‘zida birlashtiradi, — deydi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Ana shunday nufuzli tadbirga mezbonlik qilayotganimizning o‘ziyoq dunyoda yurtimiz to‘qimachilik sanoatiga bo‘lgan qiziqish, ishonch va e‘tibor oshib borayotganidan dalolat beradi. Bu shunchaki mezbonlik emas. Tadbir, avvalo, tarmoq korxonalarining jahon bozoriga yanada keng kirib borishiga yo‘l ochadi. Yaqin yillargacha bizning asosiy bozorimiz Markaziy Osiyo davlatlari bo‘lib kelgan. Faol hamkorlik aloqalari va sohadagi rivojlanishlar tufayli dunyo maydoniga kirib bordik va eksportda sezilarli natijalarga erishyapmiz. Tadbirkorlarimiz paxta xomashyosini to‘liq qayta ishlash, sifatli tayyor mahsulotga aylantiraypti, endi mashhur brendlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlashga intilyapmiz. Ular imkoniyatlarimizni bilishi uchun buni ko‘rib, tanishishi kerak. Shu jihatdan xalqaro tadbir qayta ishlashda qaysi darajaga chiqqanimiz, to‘liq qiymat zanjiri yaratilgani va tayyor mahsulotlarimiz jahon bozorida bemalol raqobatga kirisha olayotganini ko‘rsatuvchi

ko‘prik vazifasini o‘taydi. Anjumanda 260 dan ortiq xorij kompaniyasi ishtirok etayotgan bo‘lsa, ularning 50 dan ziyodi mashhur brendlari. Talabgorlarni yurtimizda soha rivoji uchun yaratilgan sharoit, berilayotgan imtiyozlar, ishchi kuchi va kafolatlangan xomashyo qiziqitirmoqda.

Tadbir sohada ishlayotgan tadbirkorlar uchun katta tajriba maydonidir. Konferensiya ishi yettita panel sessiyasida olib boriladi. Ularda dunyo to‘qimachilik sanoatining nufuzli ekspert, riteyllari, yirik brendlari egalari ma‘ruza qiladi. Rasmiy biznes dasturlari doirasida konferensiya ishtirokchilari sanoatning eng dolzarb masalalari va muammolari muhokama qiladi. Sohada sun‘iy intellektning ta’siri, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, xalqaro tartibga solish, barqaror qonunchilik va ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish masalalari shular jumlasidan. Spikerlar orasida Amerika kiyim-kechak va poyabzal assotsiatsiyasi prezidenti Stiven Lamar, Yevropa kiyim-kechak va to‘qimachilik konfederatsiyasi vakili Dirk Vantigem va ko‘plab sanoat rahbarlari bor. Ular paxta xomashyosini yetishtirish va umuman, sohada ishchilar mehnatini foydalanishda munosib mehnat sharoitlarini yaratishga ham alohida e‘tibor qarataypti.

“Better Cotton” tashkiloti mas‘ullari ta’kidlashicha, hozirgi kunda 22 mamlakatdagi 2 milliondan ortiq fermer “Better Cotton” litsenziyasiga ega va o‘z paxtalarini bozorda sota oladi. Ikki yillik hisobot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston “Better Cotton” dunyo xaritasida yaqqol qayd etilgan. Bu tizim paxta barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro dastur hisoblanadi. O‘tgan yillar davomida O‘zbekistondagi ko‘plab paxta-to‘qimachilik klasterlariga “Better Cotton” litsenziyasi berilganini alohida ta’kidlash joiz.

Samarqandda o‘tayotgan tadbirning ahamiyatli tomoni ham shunda. Soha vakillari ana shunday muhim ma‘lumotlar bilan tanishtiriladi. Xorijlik ishtirokchilarning aksariyati yuqoridagi ikki nufuzli tashkilot a‘zolari. Bu tashkilotlarning biri — Xalqaro to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi (ITMF) o‘z nomi bilan shu soha

vakillarining global savdo birlashmasi bo‘lib, ular o‘rtasida aloqa va hamkorlikni rivojlantiradi, sanoatning o‘sishi hamda barqarorligini ta‘minlaydi. Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi (IAF) ham shu vazifani bajarish barobarida tarmoqdagi asosiy muammolar va imkoniyatlarni hal qilishga ko‘maklashadi.

— O‘zim ITMFning boshqaruv kengashi a‘zosi, — deydi Xitoyning “Decor” kompaniyasi direktori Maykl Say. — Tashkilotning yig‘ilishida ikkinchi bor ishtirok etishim, ammo O‘zbekistonda ilk bor bo‘lib turibman. Bu mamlakatning odamlari menda iliq taassurot qoldirdi. Ular juda mehmondo‘st, samimiy. Shahardagi tarixiy obidalarni ko‘rishga hali vaqtim bo‘lmadi, ammo yo‘l-yo‘lakay ularga ko‘zim tushdi, haqiqatan juda chiroyli. Xalqaro konferensiyaga keladigan bo‘lsak, bizniki kabi kompaniyalar uchun ajoyib platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yerda tarmoqning ko‘plab yetakchilari bilan fikr almashish, o‘z yutuq va tashabbuslarimiz bilan o‘rtoqlashish imkoni paydo bo‘ldi. Yangi hamkorlar topish niyatidamiz. Har bir hamkorlik kompaniyamizning to‘qimachilik sanoatidagi umumiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu raqobat bozorini o‘rganishga ham yordam beradi. Kompaniyamiz global miqyosda kiyim-kechak va aksessuarlar dizayni hamda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Marketing, dizayn, ishlab chiqarish va logistika o‘zida jamlagan to‘liq paketli xizmat ko‘rsatamiz. Mahsulotlarni jahonning to‘qqizta davlatiga yetkazib beramiz. Hozir 21 ta ofisimiz bor va ularda turli millat vakillari ishlaydi. Xitoydan tashqari Vyetnam, Hindiston, Meksika, Bangladesh kabi mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyatimiz bor. O‘zbekistonni ham ular qatoriga qo‘shishni o‘ylayapmiz. Bu diyorning to‘qimachilik sanoatini o‘rganib, bozorga tayyorligini aniqlagach, strategiya asosida ish boshlashni, sohaga investitsiya kiritishni rejalashtirganimiz. Hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar olib boryapmiz.

Nazarimizda, O‘zbekistonda vertikal integratsiya va sanoatning rivojlanishiga katta e‘tibor qaratilgan. Soha vakillariga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlov ham tahsinga loyiq. Bu omillar mamlakatning to‘qimachilik sanoatida juda muhim o‘rin tutadi. Biz ikki tomon uchun ham birdek manfaatli hamkorlik o‘rnatmoqchimiz. Eng zamonaviy tajriba va texnologiyalar, katta investitsiyalarni O‘zbekistonga olib kelishimiz mumkin. Chunki dunyoning yirik chakana savdo brendlari bilan hamkorligimiz bor. O‘zaro hamkorlik orqali O‘zbekistonni global savdo tarmog‘i bilan bog‘lash mumkin.

Iroda Anvarjon qizi, jurnalist

Inson qadri uchun

HECH KIM JINOYATCHI BO‘LIB TUG‘ILMAYDI

Farg‘ona tumanidagi “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘inida yashab kelgan Boburning orzu-maqсадlari bir olam edi. Shinam uy-joy, tinch, to‘kin va farovon hayot. Bu maqsadlarga erishish uchun imkoniyat, sharoitlar yetarli, faqat mehnat qilsa, izlansa kifoya.

Ammo u boyib ketishning oson yo‘lini tanladi. Aylanma yo‘llar orqali qo‘shni mamlakatdan noqonuniy mahsulot olib o‘tish, sotish bilan shug‘ullanib, chegarachilar tomonidan qo‘lga olinganida hammasiga kech bo‘lgandi. Unga chegaradan ko‘p miqdorda noqonuniy tovar olib o‘tish ayblov bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

— Ozodlik, erkinlik qadri to‘rt devor ichida o‘tirganda bildim. Shu yerda 10 oy 13 kun bo‘ldim, — deydi Bobur Qayumov.

— Bu faqat aytishga oson, yaxshi kunlar kelishini umid qilib, tunlarni tongga ulab o‘tkazdim. Qilmishimdan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘ldim. Prezidentimizga rahmat, bizni yangi hayotga qaytardi, imkoniyat berdi. Endi jamiyatning faol a‘zosi bo‘lib, yurt taraqqiyoti, oilam, vatanim tinchligi yo‘lida yelib-yugurib xizmat qilaman. Xatoga aslo yo‘l qo‘ymayman, farzandlarimning tarbiyasiga e‘tiborli bo‘laman, toki ular men qilgan xatoni qaytarmasin, boshqalarni ham shunga chorlab qolman.

Mustaqilligimizning o‘ttiz uch yilligi bayrami munosabati bilan Prezidentimizning “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi farmoni Boburni yana qaynoq hayot bag‘riga qaytardi. Endi u ham boshqalar qatori oilasi bag‘rida mehnat qilish, dam olish, saylash va saylanish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlardan emir-erkin foydalanish imkoniyatiga ega.

Adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga solish, qiynalgan damlarda suvanchiq bo‘lish, kechirimlilik, bag‘rikenglik xalqimizga xos fazilatlardir. Inson qadri ulug‘langan yurtimizda bu an‘analar yanada keng quloch yozmoqda, adashganlarga imkoniyat berilyapti. Asosiy maqsad qayta ahvolga tushib qolganlarga imkon berish, qo‘llab-quvvatlash, o‘z muammosi bilan yolg‘iz qoldirmaslik.

Keyingi yillarda bu imkoniyatdan foydalangan minglab insonlar sog‘lom

hayotga qaytib, jamiyatimizdagi islohotlarning faol ishtirokchilariga aylandi.

— Afv etishdan asosiy maqsad xato qilganni kechirish orqali ularning oilalariga ro‘shnolik olib kirish, — deydi Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Ijtimoiy ko‘nikma markazi rahbari o‘rinbosari Bahromjon Madumarov. — Farmon doirasida viloyatimizdan 52 kishi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinib, oilasi bag‘riga qaytdi. Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xodimlari tomonidan ozodlikka chiqqan shaxslarga kiyim, oziq-ovqat, bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish, shuningdek, mehnat daftarchasi, diplom, nafaqa guvohnomasi singari kerakli hujjatlarni olish, zaruri hollarda davolanish, qariyalar va nogironlar uylariga yo‘llamalar berish kabi amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha aniq manzilli chora-tadbirlar ijrosi ta‘minlanmoqda. Ozodlikka chiqarilgan fuqarolarning barchasi viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda to‘liq malakali tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Barchasi fuqarolik pasporti bilan ta‘minlanib, qiziqishi va mehnatga layoqatlilik darajasiga ko‘ra muqim ish joylari bilan ta‘minlash maqsadida choralar ko‘rilmoqda.

Farmonga ko‘ra, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning barchasiga shahar-tuman hokimliklari huzuridagi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobarigacha bir martalik moddiy yordam pullari tarqatildi. Har bir shaxs bilan yakkama-yakka suhbat o‘tkazilib, kelgusi hayotda o‘z o‘rnini topib ketishga amaliy yordam ko‘rsatilyapti, huquqiy maslahatlar berilmoqda. Qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib, ijtimoiy hayotga moslashishiga ko‘maklashish uchun uzoq yillar davomida jamiyatning turli sohalarida ishlab, nafaqaga chiqqan namunalari oila a‘zolari, faollardan iborat tarbiyachi murabbiylar, IIB profilaktika inspektorlari biriktirildi. Tarbiyachi murabbiylar jamiyatimizdagi islohotlarning

mazmun-mohiyati, inson manfaatlariga qaratilgan sa‘y-harakatlar, bugungi tinch-osuda hayotimizga shukrona keltirish, ularning mahallada o‘tkazilayotgan turli marosim va tadbirlardagi ishtirokini ta‘minlash, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish maqsadida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelyapti.

— Qilmishimdan juda afsusdaman, — deydi bag‘dodlik Usmonali Sultonaliyev. — Endi bunday nojo‘ya xatti-harakatlar bilan shug‘ullanmayman. Oilam, yaqinlarim davrasida mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligini bayram qildik. Ozod va erkin yashash qanchalik qadrlir ne‘mat ekani va uni asrash muhimligini tushunib yetdim. Ozodlikka chiqqan oilam va mahalladoshlarimga ham cheksiz quvonch olib keldi.

Jazodan ozod etilganlarning har biri hali navqiron yoshda. Ular katta maqsadlar sari yo‘lga otlangan-u, turli sabablar bilan adashgan. Panjara orti ularga katta saboq bo‘ldi. Bu joyda yo‘qotilgan qimmatli vaqtning qadriga yetish kerakligidan ko‘plab bir umrlik xulosa chiqarib oldi.

— Biz, adashganlar kechirilib, oilamizga qaytishga ishonch bildirildi, — deydi farg‘onalik Muhammadjon Abdumalikov. — Yengil-yelpi hayot kechirish, o‘g‘irlik, aldov yo‘li bilan oson topish katta jinoyat, qabohat ekanini anglab yetdim. Bu yerda o‘tgan har bir kun katta sinov bo‘ldi. Men tufayli ota-onamning yuzi yerga qaradi, shularni o‘ylab tunlarim uyquzib o‘tdi. Ming shukrki, yorug‘ kunlarga yetdim. Endi aslo xatoga yo‘l qo‘ymayman, ota-onam yuzini yorug‘ qilaman, farzandlarim tarbiyasiga e‘tiborli bo‘laman, toki ular men kabi adashmasin. To‘g‘irlik, halollik yo‘lida yashash uchun berilgan bu imkoniyat va ishonchni, albatta, oqlayman.

Afv etilgan shaxslarning erkin hayotga moslashishi uchun barcha imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Bugun qilmishi noto‘g‘ri ekanini anglab yetgan yurtodoshlarimiz o‘ziga bildirilgan ishonchga yarasha munosib javob qaytarish, yurt taraqqiyoti, el farovonligiga hissa qo‘shish harakatida, kundalik hayotimizning faol a‘zolariga aylanmoqda.

Rasuljon NAZIROV, jurnalist

Ibrat

Bir kichikning, bir kattaning gapiga quloq sol, deydi xalqimiz. Ha, ba‘zan o‘zimizdan kichiklardan ham nimadiri o‘rganamiz. Andijonlik 30 yoshli Ro‘zixon Rasulova bilan samimiy suhbatimizda ham shunday bo‘ldi.

QUYOSHGA TALPINIB YASHAYOTGANLAR SINOVLARDAN MARDONA O‘TAYOTGAN AYOLNING HAYOT



Qahramonimiz sakkiz yilda ikki farzand bilan ota uyiga qaytib keladi. O‘sha vaqtda uning sog‘lig‘i haminqard edi. Uzoq davolanish natijasida o‘zini tetik his qila boshlagach, endigi taqdiri-yu ikki farzandining kelajagi haqida o‘ylardi. Yoshligidan birovga og‘irini solmaslikka, o‘zini o‘zi eplashga harakat qilgan. Ro‘zixon hatto otasidan pul so‘rashga tortinar, shuning uchunmi, birona hunarni o‘rganib, o‘zi daromad topishni niyat qilardi. Qizidagi iroda, qat’iyatni ko‘rgan ota esa uning yurist bo‘lishini istaydi, ammo bu taqdirida bitilmagan ekan.

U tumanidagi o‘quv markazida parda tikish va pazandalarni o‘rgandi. Qiziqishi kuchli bo‘lgani bois, hash-pash deguncha chaqqongina tikuvchiga aylandi. Ana shu hunar va doim olg‘a intilish eng og‘ir damlarda Ro‘zixonning hayotiga nur olib kirdi.

Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Birlik” MFYda yashaydigan qahramonimiz “Yoshlar daftari”ga kiritilgach, hayotidagi quvonchli voqea sodir bo‘ldi. Avvaliga unga davlat tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar — imtiyozli kredit, subsidiyadan unumli foydalanishi mumkin ekani tushuntirildi.

— To‘g‘risi, yoshlar yetakchisi subsidiyaga tikuv mashinasi olishim mumkinligini aytganida, bu shunchaki bir gap, hech qachon amalga oshmaydigan ishdak tuyulgandi. Telefonimga “Yoshlar daftari”ga kiritilgandiz”, degan xabar kelganida ham zamonaviy tikuv mashinasi olaman deb o‘ylamadim, — deydi Ro‘zixon Rasulova. — Ishonasmizmi, hokimlik binosida mashinalar topshiriladigan paytda ham menda umidsizlik bor edi. Yaratganga shukrki, bitta mashina so‘ragandim, ham overlo uskunasi, ham 22 chokli tikuv mashinasini uyga olib kelib, o‘rnatib berishdi. Bularni ko‘rib birdan ko‘nglim yorishdi. Bu yug‘iga ish qurolli soz, mashaqqatim o‘z bo‘lishini o‘ylab, nihoyatda xursand bo‘ldim. Oddiy chok mashinam bor edi. Loqaol overlo qiladigan mashinam bo‘lganida ham mehnatim chiroyli ko‘rinarmidi, mijozlarim yanada ko‘payarmidi deb o‘ylardim o‘sha paytlarda.

Ota-onam katta bir xonani tikuvchilik bilan shug‘ullanishim uchun ajratib berdi. Tanish-bilishlar, qo‘ni-qo‘shnilarning xursandligini aytib. “Juda ham shinam ishxona bo‘libdi, hali hammasi zo‘r bo‘lib ketadi”, deb havas qilganlari sari

kuchimga kuch qo‘shildi, ertangi kunimga umid uyg‘ondi. Mahalladagi 5-6 nafar shogird qizlar bilan har kuni bichish-tikish bilan bandmiz.

Darvoqe, Ro‘zixonning xorijda ishlayotgan akalari uning o‘sha yerda tikuvchilikdan yaxshigina daromad topishini aytgan. Katta akasi hatto jiyanlarining hujjatlarini xorijdagi maktab va bog‘chaga topshirib, ularni singlisi bilan birga olib ketish uchun O‘zbekistonga kelgan. Ammo singlisi ketishga ko‘nmadi. Tinchgina o‘zimizning yurtda yashashga nima yetsin, uzoqning bug‘doydan yaqinligi somoni yaxshi, dedi. Halol mehnati ortidan o‘quvchi yoshlar, qizlarni o‘ziga ergashtirayotganini mahalla raisi ham ko‘rib, bilib turibdi. Qahramonimiz mahalla idorasiga ko‘chib o‘tishi, shogirdlari safini bundan-da kengaytirishiga qarshilik qilmaydi, albatta.

— Yaqinda yoshlikdagi orzum — haydovchilik guvohnomasini ham oldim, — dedi hayajon bilan Ro‘zixon. — Farzandlarim “Tikuv mashina oldingiz, oyjon, endi albatta minadigan mashina ham olasiz-a? O‘zimizning uyimiz ham bo‘ladimi?” deydishdi. Ularga, nasib qilsa, albatta o‘z uyimiz ham bo‘lishini aytaman. Zero, bugun o‘qib, izlanib, shu yurt uchun qandaydir naf keltirishga bel bog‘lagan har bir yoshga davlatimiz yordam berayotganiga guvoh bo‘lib turibman. Yoshlar yetakchisi bilan uchrashuvlarda ularning faoliyatini kuzatdim. Ko‘plab savobli ishlar bo‘lyapti. Ayniqsa, oliy ta‘lim olayotgan, “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turadigan yigit-qizlarga yotoqxonalar berish, shartnoma pulini to‘lashdagi yordamlaridan xursand bo‘ldim. Bularning barchasi yurtimizda yoshlarga katta e‘tibor berilayotganidan dalolat.

Maqolamiz avvalida aytganimizdek, hayotidan noliyveradigan ba’zi ayollar Ro‘zixonning xulosa tariqasidagi gaplaridan ruhlansalar ajab emas: “Taqrirdimdan hech qachon nolimayman. Hayotim o‘xshamadi deb ich-etimni yeydigan bo‘lsam, farzandlarimning holi nima kechadi? Hech kim onasini g‘amgin, tushkun holatda ko‘rishni istamaydi axir. Barcha bolalar bog‘zal, sog‘lom va hayotda o‘z o‘rniga ega onasi bo‘lishini xohlaydi. Bolalarim meni ko‘rib ezilmasin, aksincha, faxrlansin. Ularga tirgak, madad bo‘lishim, yaxshi insonlar qilib tarbiyalashim kerak. Buning uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topib, shu yurtga kerakli ekanimini his qilib yashashim shart va shunday qilyapman”.

Ro‘zixonga yurist bo‘lish nasib etmagan bo‘lsa-da, u chekinmadi. Jamiyatga naf keltiradigan boshqa yo‘l topa oldi. U tumanidagi Jamoat salomatlik texnikumida o‘qiyapti. Niyaati o‘q salat kiyib, elga xizmat qilish. Tikuvchilik esa uning sevimli mashg‘uloti, hayotiga mazmun bo‘g‘ishlagan, qalbini orzularga to‘ldirgan umrboqiy hunari sifatida qolaveradi.

Bugun Ro‘zixon qatori ertangi kunga umidi uyg‘ongan yoshlarni barcha tuman, qishloqlarda uchratish mumkin. Bu kabi yoshlar menga quyoshni keltiring, deb dunyoni boshiga ko‘tarmaydi. Balki olg‘a intilib, bo‘y cho‘zib, o‘zlari quyosh bilan yuzlashadi. Shu ma’noda, ular biron e‘tibor, jindek turli sabab o‘zini ruhlantira olayotgan, metin irodali yoshlar ba’zi bir katta yoshdagi kishilarga ham ibrat bo‘la oladi.

Munojat MO‘MIHOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

G‘OLIBLIK, G‘ALABA TUYG‘USI QONIMIZDA BOR

Yangi O‘zbekiston tarixining chinakam YANGI SAHIFALARI OCHILDI



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Boshqa nuqtayi nazar bilan qaraganda, g‘alabaga erishish amaliyoti hamisha mamlakatdagi tinchlik-totuvlik, barqaror taraqqiyot va ma‘naviy-iqtisodiy yetuklikka bog‘liq ekanini ham ayon haqiqat. Boisi, sportchining, murabbiyning ongosti angamlari atrofda muhitdan ta‘sir oladi. Ya‘ni jamiyatdagi umummilliy intilishdan kuchlanadi. Umummilliy intilish esa, o‘z navbatida, mamlakatdagi taraqqiyot mezonlari bilan bevosita bog‘liqlik kasb etadi.

Xalqimizning jismoniy va ma‘naviy salohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu o‘rinda ko‘z oldimizda jamiyatimizning yetti-sakkiz yil burungi manzarasidan tubdan farqli o‘laroq, bugungi ochiq, taraqqiyga to‘la bardam qiyofasi jonlanadi.

Osmon Yer yuzining hamma joyida nazarga tushib turadi. Uning mahobati g‘oyat sirli. Yulduzlar, Quyosh va Oy, bulutlar, chaqmoq, momaqaldiroq kabi ajoyibotlar insoniyatni tafakkur qilishga chorlayveradi. Kurrayi zaminda kam ulardan kam bo‘lmagan hayratlar obyekt ko‘p. Masalan, tog‘lar, ummonlarni olaylik. Ulardan taralayotgan ruhiy axborotlar ba‘zan inson aqlini shoshirib qo‘yadi. Ammo odam avlodlari haybatli tog‘lar va ummonlardan ham o‘z manfaat uchun foydalanadi. Demak, ular istifoda qilish uchun mavjud.

Xuddi shunday ne‘matlar qatorida farovon, baxtli yashash, munosib turmush kechirishga barcha xalqlar haqlidir, bu ularning tabiiy huquqi. Bunga esa mamlakatdagi odilona boshqaruv siyosati bilan erishilishini yaxshi bilamiz. Sportchilarimizning kechagi tarixiy g‘alabalari zamirida millatimiz va xalqimizning jismoniy va ma‘naviy salohiyati yaqqol namoyon bo‘layotgani ham bugun biz naqadar to‘g‘ri yo‘lda ekanimizni anglatadi.

DUNYO QALBIDA UYG‘ONAYOTGAN “YANGI O‘ZBEKISTON RUHI”

Biz avvallari ham — hamisha to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasi — Olimpiya, Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz g‘olib bo‘lishini chin dildan niyat qilib kelganmiz, futbolchilarimizni Olimpiya maydonlarida, mudiiallarda ko‘rishni orzu qilishdan to‘xtaganimiz yo‘q.

Bu orzu-niyatlarimiz faqat keyingi yillardagina birma-bir ro‘yobga chiqayotgani quvonarli, albatta. Ammo bu kabi yutuqlarimiz zamiridagi muhim asoslarni o‘ylashimiz, tahlil qilib, xulosa chiqarishimiz ham adolatdan bo‘ladi.

Shunday ekan, keling, endi gap o‘zanini o‘sha asoslarga buramiz.

Birinci asos: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida, u kishining qat‘iy siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston dunyoga keng ochildi. O‘z navbatida, dunyo ham biz tomon xayrixoh nioh bilan qaray boshladi.

Bu xususda faxr bilan gapirar ekanimiz, dunyo qalbida uyg‘onayotgan “Yangi O‘zbekiston ruhi” falsafasining g‘alabali yurishlarimizga mohiyatan ta‘sir haqida aytish joizdir. Zero, ochiqlik siyosati, yaqin-yiroq davlatlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanish konsepsiyasining hayotdagi ifodasi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamjihatlik, qardoshlik, do‘stlik siyosati xalqimiz qaddini tikladi. Bugungi hayoti va kelajakka ishonchini oshirdi.

Bu jihatlar sportchilarimizga ham quvvat bag‘ishladi. Endi ular ortida inson qadri ulug‘lanadigan, dunyoga samimiy boqadigan Vatani, mehribon Prezidenti borligini dildan his qila boshladi. Va bu, o‘z navbatida, tanaga kuch-g‘ayrat, dilga yangi orzular bo‘lib singib bormoqda.

Ikkinchi asos: millatimiz qon-qonida mudrab yotgan yutuqli kodlar uyg‘onaypti, genofondagi quvvatlar tiklanaypti.

Bu haqda filologiya fanlari doktori, folklorshunos olim Shomirza Turdimov “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan maqolasida, jumladan, shunday yozadi: **“Tasavvur qiling, kichik daraga katta sel kelsa nima bo‘ladi? Bunday o‘zan katta oqimni udda qila olmaydi. Oqqan daryo oqaveradi, degani shu. Millatning genofondidagi quvvat katta o‘zanga o‘xshaydi. U muayyan vaqtlarda qurib qolganday, o‘zligini yo‘qotganday ko‘rinadi. Lekin charxpalak aylanib, cho‘michi yana suvga to‘lib chiqqani kabi millat ham yuksalish pallasini takrorlaydi. O‘sha charxpalak tekis aylanishi uchun tashqi ta‘sirga unga xalal bermasligi kerak. Ya‘ni millat o‘zligiga qaytishi uchun qulay sharoit ham muhim”.**

Ha, tasavvur qilyapmiz: keyingi yillarda mamlakatimizda millatimiz o‘zligiga qaytishi, o‘zini topishi va anglashi uchun juda muhim sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu har bir sohadagi yangilanishlarda, xalq bilan mulot siyosati yo‘lga qo‘yilganida o‘z so‘zini aytmoqda.

Uchinchi asos: har bir yurtdoshimiz qalbida milliy faxrlanish va Vatanga daxldorlik hissi ulg‘aya boshladi.

Bir maqolamizda milliy o‘zlik va milliy g‘urur iqtidori haqida so‘z boshlab, bunday iqtidor qachon paydo bo‘lishi va takomiliga yetishi bobida mulohaza yuritgan edik. Aslida, bu his-tuyg‘u qon suradi. Ya‘ni shajaraviy xususiyatga ega. So‘ng tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shajaraviy xususiyati ajdodlar fe‘lidagi xususiyatlar, hissiyotlar ko‘chib yuradi. Faqatgina u sustlashishi yoki aksincha, faollashishi mumkin.

NOYOB AMALIYOT QUVVATI

Sportchilarimizga tarixiy zafarlar yo‘lida ruhiy, ma‘naviy va jismoniy quvvat bag‘ishlab turgan yana bir muhim asos borki, unga bugun alohida faxr bilan to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.

Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimizni o‘z e‘tibori bilan alohida qo‘llab-quvvatlab turgani, yutug‘ orqali suhbatlashib, har bir telefon‘ini e‘tirof etgani, qalbida vatanparvarlik ruhini cho‘g‘lantirganidir.

Davlatimiz rahbarining har safar g‘olib sportchilarimiz bilan telefon orqali mulotiqidan keyin qalbmizda alohida g‘urur, faxr-iftixor hissini tuyganimiz alohida mavzu, aslida. Chunki bugungiday g‘oyat tahlikali zamonda, xalqaro maydonlarda siyosiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar avj olgan bir sharoitda o‘ta muhim davlat ishlaridan ortib, Parij sport maydonlarida o‘zini namoyon etayotgan sportchilarimizning chiqishlarini kuzatib borish, so‘ng ularning har biri bilan alohida-alohida telefon orqali suhbatlashish, aslida — **KATTA HODISA**. O‘z navbatida, mamlakatimizning siyosiy quvvati yuksalayotganidan ham darak beradi.

Katta hodisaligi mohiyati shundaki, avvalo, davlat rahbarining sportchilar bilan bevosita mulotiq qilishi dunyo tajribasida noyob amaliyot sanaladi. Endi bir o‘ylab ko‘raylik, Prezidentimiz muzaffar sportchilarimizning har biri bilan gaplashganda, **“bolam”, “farzandim”, “o‘g‘lim”, “qizim”, deya ularga juda ulkan motivatsiya berdi, har biridan hol-ahvol so‘rab, ota-onalariga o‘z rahmatlarini aytadi.**

Bunday vaziyatda qalbda shijoat, Vatanga bo‘lgan mehr, g‘alabaga intilish hissi beixtiyor kishi vujudini egallab oladi va unda kuchlanish kodlari uyg‘onadi. Parijdagi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan g‘alabalarga davlatimiz rahbarining sportchilar bilan suhbatlari ham muhim asos bo‘lganiga bugun barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Siyosiy quvvatimiz yuksalayotganidan darak esa mamlakatimizda xalq bilan ana shunday oliy darajadagi bevosita mulotiqotlar yo‘lga qo‘yilganidir. Chunki odamlar uzoq yillar o‘z muammolari bilan yolg‘iz yashab keldi. Ularning dardini eshitir rahbar bo‘lmadi, masalalarga yechim topish haqida qayg‘urilmadi. Yangi O‘zbekistonda o‘zgarimasdek tuyulgan bu noxush an‘anaga barham berildi. Mamlakatda erkinlik muhiti yaratildi. Odamlar muammolari aytib boshladi, bugun ularning fikri bilan hisoblashilmoqda. Bularning barchasi jamuljam bo‘lib, mamlakatning tom ma‘nodagi siyosiy karyerasini belgilab bermoqda.

Bugun O‘zbekiston xalqida o‘z aziz yurti, millati, barcha jabhadagi yuksalishlardan g‘ururlanish holi paydo bo‘lgan. Shundandir, ikki oydirki Parij maydonlarida bayrog‘imiz hilpirab, o‘zbek do‘ppisi millatimiz vakillariga yarashib turdi.

Shu o‘rinda Islom dunyosi ta‘lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) Bosh direktori Salim bin Muhammad al-Malikning o‘zbek zaminida bilimga chanqoq, tinchlikka intiluvchi xalq yashashi, ular ma‘rifatparvar xalqlar orasida munosib o‘rin egallashini azaldan isbotlab kelgani haqidagi fikrlarini yana bir bor eslasak. **“O‘zbekiston rahbari, muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyalarining jamiyatda ta‘lim va ilm-fanning**

rolini oshirish, madaniyatni asrab-avaylash va yuksaltirishga qaratilgan sa‘y-harakatlari va tashabbuslarini Alloh taolo barokatli qilsin”, degan edi u joriy yil iyun oyida Zominda bo‘lib o‘tgan Xalqaro maqom san‘ati anjumanida.

Bu e‘tirofni qayta eslaganimiz boisi shundaki, mamlakatimizdagi islohotlar tizimli ko‘rinish olib, ma‘naviy-ma‘rifiy, iqtisodiy, umuman, barcha sohadagi yangilanishlar uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib, pirovardida yaxlit yutuqlarimiz samaradorligini ta‘minlab bormoqda.

DUNYONING OCHIQ KO‘ZLARIDAGI HAVAS

Endi yana bevosita XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan tarixiy g‘alabalar quvonchiga qaytsak.

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz dunyo mamlakatlari o‘rtasida 13-o‘rinni egalladi. Ular bir qator rekordlarni yangiladi, to‘rt yilda bir marta bo‘lib o‘tadigan, butun dunyo nigohi qaratilgan, insoniyat katta hayajon, zo‘r qiziqish bilan kuzatib boradigan musobaqadagi raqamlarni o‘zgartirib yubordi.

Shu kunlarda shoirlarimiz oltin avlod — muzaffar sportchilarimiz erishgan natijalardan ruhlaniib, ilhomlanib she‘rlar, qasidalar bitmoqda. Bu ijod namunalarining har biri mamlakatimiz yoshlari, aziz o‘g‘il-qizlarimizni ham yangi yutuqli marralar sari hapriqtirib turgan bo‘lsa, ne ajab.

Qolaversa, paralimpiyachilarimizni qizg‘in qo‘llab-quvvatlash uchun Parijga borgan ko‘p sonli muxlislar, mutasaddi rahbarlarimizning o‘rini ham alohida e‘tirof etish joiz. Boisi, har bir olqish, g‘alaba sari ruhlantirish sportda juda muhim. Shuningdek, davlatimiz tomonidan delegatsiyamiz uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgani tarixiy g‘alabalarimizga zamin bo‘lgani ham kundek ravshan.

Darvoqe, muxlislar haqida aytganda, Paralimpiya o‘yinlari davom etayotgan kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbekistonlik jonkuyar bir yurtdoshimiz chet ellik tomoshabinlar boshiga o‘ynab o‘ynab o‘zbek do‘ppisini kiydirib yurgani aks etgan kontent keng tarqaldi. Uni ko‘rib xayolga yana bir fikr keldi. Mana bir necha yildirki, yurtdoshlarimiz xoh velosipedda, xoh avtomobilda, samolyot yoki poyezdda, xoh piyoda bo‘lsin, boshga do‘ppi qo‘ndirib, bayrog‘imizni yelkasiga yopib, O‘zbekistonni, o‘zbek elini barchaga tanitish uchun dunyo bo‘ylab yo‘lga chiqayotgani guvohi bo‘lib turibmiz. Bu manzaraga bir so‘z bilan ta‘rif beradigan bo‘lsak: **O‘ZBEK KELAYOTIR!**

Nafas olib kirib kelgan tongda buyuk hikmatlar bo‘ladi. Faqat bu hikmatlarni anglash fursatini qo‘ldan boy bermaslik muhim. Shu bois, maqolamiz avvalini inson tug‘ilishi, ongi, fikrlash uhdasi, histuyg‘ulari bilan qudratli mo‘jiza ekani haqidagi mulohaza bilan boshlagan edik. Yana biz angamlar haqiqati va nekinlik haqida ham savol qo‘ygandik.

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz dunyo mamlakatlari o‘rtasida 13-o‘rinni egalladi. Ular bir qator rekordlarni yangiladi, to‘rt yilda bir marta bo‘lib o‘tadigan, butun dunyo nigohi qaratilgan, insoniyat katta hayajon, zo‘r qiziqish bilan kuzatib boradigan musobaqadagi raqamlarni o‘zgartirib yubordi.

Bunga javoban aytishimiz mumkinki, dunyoga yaxshilik sog‘inayotgan va sportchilari-mizdek o‘zining ajoyib natijalari bilan ham-maga birdak quvonch ulashayotgan, g‘alabalar sururini o‘z Vatani sharafiga bag‘ishlayotgan katta elimiz yutuqlari siri, avvalo, umrning har lahzasini qadrlashimiz, fursatlar g‘animat ekanini anglab yetganimiz emasmi?!

Mana shu holatning natijasi ham totli bo‘ladi. Demochimizki, Parijdagi g‘alabalarimizning milliy davlatchilgimiz rivojiga yanada shijoat bag‘ishlaydigan jihat-lari bor.

Birinchidan, g‘alabalar xalqni ruhlantiradi. Ikkinchidan, jamiyatda ahillik hissini mustahkamlab, yurtdoshlarimizni birlashtiradi. Uchinchidan, mamlakatda yoshlik shijoati va kuch-g‘ayrat muhitini yuksaltiradi.

Shu o‘rinda yana bir mulohazani aytmasak bo‘lmas. **To‘g‘ri, paralimpiyachi sportchilarimizning jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoki ko‘rish qobiliyati o‘zgartirib yubordi.**

Bir so‘z bilan aytganda, **“Parij — 2024” musobaqalarida bizning sportchilarimiz dunyo kakhkashoniga o‘zbek millati, temuriylar, boburiylar avlodlari kelayotgani, ular ko‘p ishlarga qodirligini, Prezidentimiz sa‘y-harakatlari bilan Markaziy Osiyo mintaqasida birdamlik, hamjihatlik, azaliy qardoshlik muhiti qaror topganini baralla ko‘rsatdi. Sport ana shu jihatlar bilan ham zavqli va ahamiyatlidir.**

Ishonamizki, Parij natijalari biz uchun marra emas. Vaqt musoada etsa, hali bundandamuhim g‘alabalarga erishamiz. Eng muhimi, mashqatli dovondan o‘tib oldik. Biz ko‘zlagan Uchinchi Renessans hodisasining mana shunday urjun mo‘judlari barchamizga muborak bo‘lsin!

2024-yil 10-sentabr, 183-son



IPOTEKA KREDITI OLIISH OSONLASHDI, TO'LASH-CHI?!

Dolzarb mavzu

Bir necha tanishlarim plastik kartalariga oylik maoshi tushishi bilan pulni kredit to'lovi uchun o'tkazib yuboradi. O'zi o'tkazmasa, bank avtomatik ravishda yechib oladi. Deyarli har oy shu holat takrorlanadi. Ayrimlari esa yashab turgan xonadoni ipoteka kreditiga olingani va har oy to'lov qilayotgani, yana birlari shunday imkoniyat bo'lmaganida hali ham ijaraga falon puldan to'lov qilib yurgan bo'lishini aytib shukr qiladi.

Hozir kimdir yashash uchun, kimdir farzandlariga deb, boshqa birov esa ijarachi qo'yib, qo'shimcha daromad topish maqsadida bir necha xonadon sotib olayotgani odatiy holga aylandi. Surishtirsangiz, xonadonlarning biri bo'lmasa biri ipoteka krediti asosida xarid qilingan. Uyning boshlang'ich to'lovini to'laydida, qolganini oylik maoshidan oyma-oy qoplab boradi. 10-15 yoki 20 yilga ajratilayotgan ipoteka kreditlari endi odamlar uchun rasmiylashtirish azob bo'lgan yoki katta foiz to'lanadigan vahimali xatar emas, balki xonadon sotib olishning qulay usuliga, boshqacha aytganda, sizdan ugina-bizdan bugina qabilidagi hamkorlikka aylandi.

Markaziy bank tomonidan joriy yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha e'lon qilingan ipoteka kreditlari sharhida ham bu o'z aksini topgan. Unda keltirilishicha, dastlabki yarim yillikda tijorat banklari tomonidan oz emas, ko'p emas — 26 ming fuqaroga umumiy qiymati 6,9 trillion so'm miqdoridagi ipoteka kreditlari ajratilgan. Ushbu davrdagi kreditlar qoldig'i esa 61,8 trillonga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21 foizga o'sgan.

— Hududlar kesimida ajratilgan ipoteka kreditlarining eng yuqori ulushi Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona viloyatlari, nisbatan kamroq ulushi esa Sirdaryo va Jizzaxda istiqomat qiluvchi fuqarolar hissasiga to'g'ri kelmoqda, — deya izohlaydi Markaziy bankning Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish departamenti boshqarmaga boshlig'i Nodir Komilov. — Bu, albatta, turli omillar, mavjud talab va ehtiyoj bilan bog'liq. Moliyaviy tomonlariga kelsak, aholining ipoteka kreditlariga bo'lgan talabini qondirishga turli manbalardan yonaltirilyapti. Xususan, joriy yil yarim yillikda ajratilgan ipoteka kreditlari resurs manbalarining 53,3 foizi markazlashgan mablag'lar, 34,4 foizi tijorat banklarining o'z mablag'lari, 12,3 foizi esa kompaniya mablag'lari hisobidan berilgan. Bunda markazlashgan resurslar hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari ulushi kamayib, tijorat banklariniki esa oshib borayotganini kuzatish mumkin. Mazkur ko'rsatkich 2023-2022-yillarning mos davriga nisbatan 5 foiz hamda 13 foiz bandga ortgan. Ushbu tarkibiy o'zgarish tendensiyasini aholining ipoteka kreditlari orqali uy-joy sotib olishida bosqichma-bosqich davlat ishtirokini kamaytirib, moliyalashtirishning bozor mexanizmlariga ustuvorlik berilayotgani bilan izohlash mumkin va bu ijobiy ko'rsatkich.

TAKLIFGA YARASHA TALAB BORMI?

Yigirma yilga kredit olish haqida gap ketsa, aksariyatimiz shuncha yil davomida oyma-



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

oy davlatga pul to'lashdan o'zimizni olib qochardik. Atrufimizda bir nechta shunday yo'l bilan uy olib, ijaraga behuda pul to'lashdan qutigan, endi oylik to'lovni kreditga sarf qilayotgan bo'lsa ham, har holda o'ziga qoladigan uyga to'layotganini ko'rib, bu borada



fikrlar o'zgargani ham bor gap. Ipoteka krediti orqali qo'shimcha xonadon olib, uning ijara pulidan oylik kredit to'lovini qoplayotganlar esa qiziqishimizni yanada oshirdi. Amallab boshlang'ich to'lovni topsa, kreditni olish ham avvalgidек azob emasligi ko'pchilikka moydek yoqib tushdi. Yigirma yil davomida uyning puliga qo'shib kredit foizini ham to'lashimizni bilsak-da, inflyatsiya hisobiga bu o'zini qoplashi, yillab pul yiqquncha, undan ko'proq zarar ko'rishimizni ham xomcho'tlab oldik. Xullas, oxir-oqibat, ipoteka krediti olish ancha qulay degan xulosaga keldik.

Balki shuning uchun oxirgi yillarda yurtimizda ipoteka kreditiga talab keskin ortgandir? Albatta, asosiy sabablardan biri shunga ochildan imkoniyat natijasi. Ammo masalaning boshqa omillari ham bor. Bu uy-joyga bo'lgan talabning kun sayin ortib borayotgani bilan bog'liq.

O'zbek xalqida demografik o'sish doim yuqori bo'lgan. Biroq keyingi yillarda bu tendensiya yanada jadallashdi. Bir necha yil oldin mamlakatimiz aholisi soni 33 milliondan oshdi deb yurardik. Joriy yil 1-iyul holatiga ko'ra, 37,1 million kishiga yetdi. Xalqaro valyuta fondi tahlillariga ko'ra, 2029-yilgacha O'zbekistonda doimiy aholi soni 41 million nafarga yetishi taxmin qilinaypti.

Shunga yarasha qurilish ishlari ham yil sayin kengayib boryapti. Chunki bozorda talab bor. Ko'pchilik bu talabning real ekaniga, har bir hududda qurilayotgan yuzlab, minglab xonadonli ko'p qavatli uylar, kichik maydonli xonadonlarning hammasi ham sotilayotganiga shubha qilishi mumkin. Bir safar o'zim ham qiziqib, yangi qurilayotgan uy-joylarga qo'ng'iroq qilib chiqdim. Ishonsangiz, aksariyatining hali qurib bitkazilmasidan o'z egalari bor, ya'ni odamlar sotib olgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir emas, bir necha xonadon xarid qilish odatiy holga aylanib qoldi. Bu o'zini qanchalik oqlaydi yoki bozorda uy-joyga bo'lgan talab hamda narx-navo oshishiga sabab bo'lishi boshqa masala. Hozir gap uy-joy xarid qilish imkoniyatlari kengaygani haqida boryapti.

Avvalo, aholi ehtiyojini qondirish uchun qurilishlar ko'lamini ortmoqda. Birgina joriy yilning olti oyida mamlakatimizda 79,8 trillion so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 foizga,

Ammo tahlillarni ko'rgach, bu ham go'yo kundalik savdoga o'xshab qolgani, qancha ko'p uy-joy qurilmasin, yurtimizda shunga yarasha aholi soni ortib borayotgani, rivojlanishlar ko'lamini turar joyga talabni oshirayotganiga amin bo'lamiz. Mutaxassisning ta'kidlashicha, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi o'z tahlillarida O'zbekiston ko'chmas mulk bozorida barqaror muvozanatni shakllantirish uchun



2015-2025-yillar davomida har yili o'rta 150 mingta kvartira qurilishi lozimligini qayd etgan. Biroq 2015-2023-yillarda foydalanishga topshirilgan xonadonlarning umumiy soni 821,2 mingta (yillik o'rta 91,2 mingta) ni tashkil etib, taklif potentsiali mavjud talab darajasidan sezilarli darajada ortda qolgan. O'z vaqtida qoplanmagan uy-joyga bo'lgan umumiy talab kelgusi yillarda ko'chmas mulk bozorida faollikning keyingi siklini shakllantiradi.

NARXLAR VA DAROMADLAR NOMUTANOSIBLIGI

Uy-joyga talab o'sishda davom etadi. Ularni xarid qilish imkoniyatlari-chi? Qolaversa, kredit olgandan keyin uni to'lash majburiyatlarini, degan talab bor. Axir o'ramizda oladigan maoshining to'rtidan uch qismini kredit qarzdorligiga to'layotganlar ham yo'q emas.

To'g'ri ta'kidlagimiz, ipoteka kreditini olish bir masala bo'lsa, uning to'lov qobiliyatiga ega bo'lish alohida masala. Ya'ni ipoteka qarzdorligi odamlarga yuk bo'lib tushishi emas, balki qulaylik yaratishi lozim, — deydi Nodir Komilov. — Shu kabi omillarni inobatga olib, Markaziy bank boshqaruvi joriy yil 1-iyulidan boshlab tijorat banklarining aholiga kredit ajratishda qarz yukini hisobga olishi talabini belgilagan. Bunda barcha kreditlarni berishda kreditlarni o'z mijozlarining qarz yuki 60 foizdan oshmasligi, 2025-yil 1-yanvardan esa bu ko'rsatkich 50 foizgacha qisqartirilishini ta'minlashi zarur. Qarz yuki ko'rsatkichi — bu qarz oluvchi o'rtacha oylik daromadining soliqlar chegirib tashlangandan keyin barcha kreditlari va qarzlari bo'yicha shartnoma to'lovlarini

amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ulushi hisoblanadi. Ya'ni talabgorning oylik maoshi oladigan kreditini to'lashga mutanosibligi aniqlanadi. Joriy yilning dastlabki yarim yilligi tahlillariga ko'ra, ipoteka kreditlari mavjud 38,2 ming fuqaroning kreditlari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlar miqdori respublikada amaldagi o'rtacha nominal oylik ish haqidan, 4,4 ming qarz oluvchilar esa aholi jon boshiga umumiy

daromadlardan ko'p miqdordagi to'lovlarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga, ipoteka krediti mavjud fuqarolarning yuqori oylik to'lovchilari kategoriyalari ulushida o'sish tendensiyasi davom etayotganini ko'rish mumkin. Xususan, o'tgan olti oyda 2 million, 5-7 va 7 million so'mdan yuqori miqdordagi oylik to'lovchi qarz oluvchilar soni ortgan, quyi miqdordagi oylik to'lovlarini amalga oshiruvchi fuqarolar ulushida esa kamayish qayd etilgan. Mazkur holat ushbu fuqarolarning qo'shimcha norasmiy daromadga egaligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu davrda fuqarolarning ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlar miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16 foizga oshgani ham rost. Uy-joyga bo'lgan umumiy talab taklif potentsialidan ko'p va narxlar aholi daromadlariga nisbatan nomutanosib shakllangan hududlar orasida Toshkent shahri, Namangan va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilaypti. Mazkur hududlarda ipoteka kreditlari bo'yicha oylik to'lovlar miqdori boshqa joylarga qaraganda tezroq o'sgani ko'rinadi.

Yana bir tomoni, joriy yil 1-iyul holatiga ko'ra, 20 yilgacha muddatga ajratilgan ipoteka kreditlarining ipoteka krediti portfelidagi ulushi o'tgan yil ko'rsatkichlariga nisbatan 2,5 foizga kamaygan bo'lsa, 10 yil va 15 yilgacha muddatga ajratilgan ipoteka kreditlari ulushi mos ravishda 1,9 foiz hamda 6 foizga ko'paygan. Mutaxassislar mazkur tarkibiy o'zgarishni bankning o'z mablag'lari hisobidan ajratilayotgan ipoteka kreditlari orqali asosan ikkilamchi bozordan uy-joy sotib olishga bo'lgan talabning oshib borayotgani bilan izohlamqda.

FOIZLARNI CHO'NTAK
KO'TARADIMI?!

Ipoteka krediti olishni rejalashtirayotgan yoki allaqachon shunday kredit olib, har oylik to'lovni amalga oshirayotgan kishilar ko'pincha foizlarni kuzatib boradi. Kredit foizining eng kichik miqdorda o'sishi ham har oylik to'lovlarining sezilarli oshishiga olib keladi. Shu bois, joriy yilning 25 iyul kuni Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilash to'g'risidagi qarorni qabul qilganida odamlar kreditlar foizlari tushishidan ham umid qildi. 2017-yil iyun oyidan buyon o'zgarishsiz saqlanib kelayotgan 14 foizlik stavkaning yarim foizga tushirilishi katta voqeilik edi. Chindan ham yurtdoshlarimiz kutgandek bo'ldi va Markaziy bank tomonidan belgilangan ipoteka krediti foizlari amaldagi 18 foizdan 17,5 foizga tushirildi.

— Bu kreditlar foizlarining oshirilganidan ko'ra yaxshiroq, — deydi fuqaro Nargiza Mahkamova. — Uymimizni 20 yillik ipoteka krediti asosida olganmiz. To'lovlarini har oylik maoshimdan to'lab boraman. Biz ancha oldin imtiyozli foiz stavkasi kredit olganmiz, shunga qaramay, stavkaning pasayishi bizning to'lovlarimizga ham ta'sir qildi. Oylik kredit to'lovi o'zgina pasaydi. Shu ham oilamiz byudjetiga foyda, harna-da!

Tahlillarga ko'ra, ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning xarid maqsadlari dastlabki ehtiyojni qoplashdan foyda olishga o'zgarishi ortib bormoqda. 2017-yilda ipoteka kreditlari orqali ikki va undan ko'p marta uy-joy sotib olgan fuqarolarning ushbu davrda ajratilgan jami ipoteka kreditlari sonidagi ulushi 3,7 foizdan 2024-yil birinchi yarim yilligida 6,5 foizgacha oshgan. Ushbu ipoteka kreditlarining o'sish tendensiyasi asosan bankning o'z mablag'lari hisobidan ajratiladigan ipoteka kreditlari orqali yuzaga kelmoqda. Bu borada tenglikni ta'minlash hamda byudjet mablag'lari hisobidan ajratiladigan ipoteka kreditlari orqali uy-joy sotib olishga ehtiyojmand aholi qatlamini kengroq qamrab olish muhim masalalardan biri. Shu bois, Prezidentimizning joriy yil 30-apreldagi “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan shu yil 1-maydan boshlab respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ajratiladigan ipoteka kreditlari avval mazkur turdagi ipoteka kreditlaridan foydalanmagan shaxslarga ajratilishi tartibi belgilandi.

Umuman, istagi bo'lsa, imkoniyati yetsa ipoteka krediti olishga barcha birdek haqli. Hatto norasmiy daromadga ega jismoniy shaxslarga ham ipoteka krediti ajratish yo'lga qo'yilganining boisi shunda. Joriy yilning olti oyida ajratilgan ipoteka kreditlarining 22 foizi shunday fuqarolarga yo'naltirilgan. Mazkur yo'nalishdagi qamrov chindan oshib boryapti. Raqamlarga emas, atrofimizga qarashimizning o'zi yetarli, tanishlarimizdan hech bo'lmaganda bittasi ipoteka krediti asosida uy-joy olganini ko'ramiz.

— Bu boradagi talab kelgusi yillarda ham iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda oshishda davom etadi, — deydi Nodir Komilov. — Masalan, dastlabki olti oyning o'rtida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulot hajmi 6,4 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa o'tgan yilga nisbatan 36,6 foizga yuqoriladi. Xalqaro valyuta fondi prognozlariga ko'ra, YIM o'sishi yil yakunida oldingi yilga nisbatan 5,4 foizga, 2025-yilda esa 5,5 foizga o'sishi kutilmoqda. Mazkur o'sish ko'rsatkichlari uy-joy bozorida taklif potentsialini kengaytirish bilan bir qatorda aholining xarid qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Taklif ham shunga mos tarzda ortib boradi.

Umuman, ipoteka kreditlari ajratishda aholini qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik berish maqsad qilingan. Joriy yil ipoteka dasturi doirasida kam daromadli va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan jami 27 ming fuqaroga ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya mablag'lari ajratilishi belgilangan ham shu ishlarning bir qismi. 2024-yil yakuniga qadar foydalanishga topshiriladigan uy-joylar sonining sezilarli oshishi subsidiya xabarnomasiga ega fuqarolar tomonidan kvartiralar sotib olishda tanlov imkoniyatlarini kengaytirishi ham kutilmoqda.



Yurt nuroniylariga o'g'il, boshqalarga do'st-birodar, aka-uka sifatida tanilgan rossiyalik investor Magomed Kostoyev kulollar yurti Rish-tondan qo'nim topganiga 17 yil bo'ldi. O'zbek tilida bemalol so'zlasha oladi. To'y-u tomosha, quvonchli va qayg'uli damlarda el bilan doim yelkadosh.

2007-yillarda tumanda yagona bo'lgan yigiruv korxonasi bankrot yoqasiga kelib qoldi, jihozlar talon-taroj qilindi, ish o'rnlari qisqardi. Korxonani qayta tiklash, faoliyatini yo'lga qo'yish uchun sarmoya kerak edi. Bu ishga rossiyalik Magomed Kostoyev bel bog'ladi. Ip-yigiruv korxonasi bazasida “Rusuzbekteks” xorijiy korxonasiga asos solidi.

Korxona faoliyati tiklanib, paxta xomashyosidan ip yigirish yo'lga qo'yildi. 500 ta ish o'rni yaratildi. 2018-yilda korxona hayotida yangi davr boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra,

“Rusuzbekteks” xorijiy korxonasi huzurida Farg'ona viloyatida yagona bo'lgan paxta-to'qimachilik klasteriga asos solindi.

— O'sha kezlarda tumandagi umumiy paxta hosildorligi gektariga o'rta 20-22 sentnerni tashkil qilardi, — deya xotirlaydi Magomed Kostoyev. — Ishni yer boniteti, tuproq tuzilishi va tarkibini o'rganishdan boshlaganmiz. Suvga ehtiyoji katta, sho'r rlangan, o'g'itga muhtoj yerlar haqidagi ma'lumotlar xaritasi tayyorlandi. Yerning ustki qismi hamda 10-20 metr chuqurlikdan tuproq namunalari olinib, atroficha tahlil qilindi. O'rganish natijalari, mutaxassislar fikr va xulosalariga asoslanib, yer, iqlim sharoitiga mos seroshli, ertapishar navli chigit qadaldi. Ekin parvarishi bilan bog'liq agrotehnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirdik, kerakli texnika, mineral o'g'itlarni dala boshiga yetkazib berdik. Harakatlارimiz samara berdi. Dastlabki yilning o'zida hosildorlik gektariga 30 sentnerdan oshdi. Bu o'sha payt uchun juda yuqori ko'rsatkich edi.

Yangi tizim dehqonlar manfaatdorligini oshirdi. Yillar davomida yuzaga kelgan eskicha

ish tizimi — buyruqbozlik, qog'ozbozlik, tanish-bilishchiliklar barham topdi. Fermer hosil yetishtirishda hech narsaga ehtiyoj sezmad. Ishchi-xizmatchilar o'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlab turilibdi. Ekin rivoji mutaxassislar tomonidan nazoratga olingan. Shu kunga qadar yuqori hosil olgan paxtachilik fermer xo'jaliklariga 12 ta yengil avtomashina rag'bat tariqasida tuhfa qilindi. Ilg'or terimchilar, mutaxassislar moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borilmoqda.

— Magomed biz bilan yaqin hamkor, har bir ishni o'zaro maslahatlashib qiladi. Mehnatkash, yangilik va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi do'st sifatida mehrimizni qozongan, — deydi “Feruza-Ixtiyor” fermer xo'jaligi rahbari Elyorbek Akbarov. — O'tgan mavsumda 43 gektar paxta maydonining har gektaridan 48 sentnerdan hosil oldik, bir milliard so'mga yaqin daromad ko'tardik, yangi texnikalar xarid qildik. Bu yilgi hosil cho'g'i ham chakkli emas.

Paxta yetishtirish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. O'tgan yil hosildorlik o'rta hisobda

39,4 sentnerga yetdi. Bu avvalgi yillarda qiyoslanganda 10 sentner ko'p.

Korxona faoliyati kengayib borishi hisobiga yangi “Kosto Line Holding” korxonasiga asos solindi. Bu yerda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, qo'shimcha qiymatga ega mahsulot tayyorlash va eksport qilish yo'nalishida yangi loyihalar ishga tushirildi. Umumiy qiymati 32 million yevro bo'lgan loyiha oddiy xomashyodan qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini berdi. Yillik quvvati 20 ming tonnadan ortiq ip-kalava, mato, momiq sochiq, qotoqxona choysablari ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushirildi. Germaniya, Italiya, Turkiya, Fransiya dan keltirilgan yuqori texnologik uskunalarni 600 dan ortiq mahalliy yosh mahorat bilan boshqarmoqda. Yangi tarmoq faoliyati tufayli ishlab chiqarishdagi yillik eksport ulushi 30 million dollardan oshdi.

— O'zbekiston imkoniyatlar o'lakasi sifatida dunyoga tanildi, — deydi korxona rahbari. — Prezident tadbirkor va investorlarning yaqin ko'makchisi, qo'llab-quvvatlovchisi sifatida islohotlarga rahbarlik qilmoqda, shart-sharoitlar

yaratib berilyapti. Bundan kuch-quvvat olmaymiz, yangi rejalar ustida ishlayapmiz. Ayni kunda 90 million yevro investitsiya kiritish hisobiga noto'qima matolar yo'nalishida ish boshladik. Bu yerda 17 ming tonna biologik parchalanadigan noto'qima matolar tayyorlanadi. Jahon bozorida bu mahsulotga talab juda yuqori. Biologik parchalanadigan xomashyo tabiatni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Undan bolalar tagliklari, turli gigiyenik vositalar, kosmetik va nam sochiqlar, tibbiyotda doka o'rinda ishlatiladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

O'zbekistonning shiddatli iqtisodiy hayotida faol ishtirok etib kelayotgan xorijlik investorning mehnat va izlanishlari besamir ketgani yo'q. Yaqinda “Kosto Line Holding” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischi Magomed Kostoyev “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

— Mukofotlangan kunda xorijda safarda edim. Xushxabaring qanoti bor, deganlari rost ekan. O'zbekiston, rishtonlik qadrdonlarim yo'llagan tabrik va quytovlardan boshim osmonga yetdi. Shu yurtda mehr topdim, mehr ko'rsatganimga sevindim, — deydi Magomed faxr bilan. — E'tibor va e'tirofdan ruhlandim, kuch-quvvat oldim. Tinch-totuv, barcha shart-sharoitlar mujassam yurtda yashash, ishlashning zavqi boshqacha bo'larkan. Hammasi uchun katta rahmat.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Prezidentimiz 4-sentabr kuni sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘ini takomillashtirish hamda tibbiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi. Aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va davolashda birlamchi bo‘g‘in juda muhim. Shuning uchun davlatimiz rahbari bu yo‘nalishdagi islohotlarni xalqimizning, ayniqsa, olis hududlardagi aholining talab va ehtiyojlarini chuqur o‘rgangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini ta’kidladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda tibbiyot sohasi tubdan isloh qilindi. Birlamchi bo‘g‘inni kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot xodimlarining bilim va malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, poytaxtimizdan tortib yurtimizning chekka qishlog‘-u ovullarigacha zamonaviy oilaviy poliklinikalar qad rostlamoqda, yangi binolar tibbiy jihoz va anjomlar bilan ta’minlanmoqda. Mavjud, biroq eskirib, yaroqsiz holga kelganlari esa to‘liq ta’mirdan chiqarilayapti. Bu islohotlardan shifokorlar ham, xalqimiz ham mamnun.

Tunov kuni Jovli otaning nabirasi gap topib keldi: qishloqda eski poliklinika bo‘lgan, u buzilib, o‘rniga yangi bino qad ko‘taribdi. Zamonaviy binoda bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar hozirlanganmish. Endi odamlar olisga qatnab, ovora bo‘lmas ekan.

Bu gaplarga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay, hayron turgan otaning sal avvalroq ham bu haqdagi gaplar qulog‘iga chalingani yodiga tushdi. Demak, bejiz emas. Yoshi yetmishga yaqinlashibdi, amal-taqal qilib, moslashtirib qo‘yilgan bino yangilanishi haqida hech bir gap-so‘z bo‘lmagandi. Oldinroq yo‘l asfalt bo‘larkan, deyxiganida quruq gap bo‘lsa kerak deb o‘ylagandi. Ana, baraka topishsin, tog‘li hudud demasdan qisqa fursatda chiroyli yo‘l qurib ketishdi. Bu xushxabarning tagida ham harqalay haqiqat borligiga shubha qilmasa bo‘ladi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmadi, Mustaqillik bayrami arafasida ko‘pchilik nuroniylar qatori Jovli otani ham zamon talablariga mos ravishda



barpo etilgan oilaviy poliklinikaning ochilish marosimiga taklif qilishdi. Ota ertalabdan tadbirga otlandi. Poliklinika hovlisi yaqin atrofdagi qishloqlar aholisi bilan gavjum. Barchaning ko‘ngli shod. Tog‘ bag‘riga tumor kabi yarashqli qad rostlab turgan shinamgina poliklinika bugun ish boshlaydi. Bir chetda o‘tirib, qolganlarning xursandchiligiga sherik bo‘layotgan Ergash ota istiqloq bergan ne‘matlarga shukrona aytishdan charchamasdi. Bir paytlar birgina tish og‘rig‘i uchun tuman markaziga borish kerak bo‘lardi. Markaz yaqin bo‘lsa, koskhi. Bir kun vaqt ketadi. Gohida avtobusdan qolib ketsang, ertani kutishga to‘g‘ri kelardi. Eh-he, bu tog‘lar orasida, bu yo‘llarda dardmand kishilarning qanchasi azob

bo‘lgan binodan moslashtirilgan tibbiyot punkti sifatida foydalanib kelinar, shifokorlar ham imkon qadar o‘zlari sharoit yaratishga intilgan. Shunday qadar bo‘lsa-da, tog‘li hududda qish kunlari xonalarni istishning o‘zi bo‘lmasdi. Ayniqsa, biror bemorga yordam berishga, kerakli muolajalarni bajarishga sharoit yo‘qligidan afsuslanishgan. Shunga qaramay, qachondir bu manzilda ham barchasi ko‘ngildagidek bo‘lishidan umid uzishmagan.

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yiligi arafasida 38-sonli “Hazara” oilaviy poliklinikasining zamonaviy binosi foydalanishga topshirilishi hazaraliklarning uzoq yillik muammolariga yechim bo‘ldi. Orzular ushaldi. Olis yaqin, mushkullar oson bo‘ladigan bo‘ldi.



1950-yillarda qurilgan tibbiyot punkti ancha eskirib qolgan sabab keyingi paytlarda aholiga yetarlilik tibbiy xizmat ko‘rsata olmayotgan edi. Shu bois, joriy yil byudjet mablag‘i

evaziga qayta rekonstruksiya qilinib, qo‘shimcha bino qurildi, qamrovli kengaytirilgan tibbiyot punktida sifati tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun barcha qulaylik yaratildi. Punktda UTT, EKG, laboratoriya tekshiruv, fizioterapiya, stomatologiya kabi zamonaviy tibbiy xizmatlar ham tashkil qilindi, hazaraliklar bundan benihoya mamnun.

— Olis tog‘ hududidagi bir qishloqda mana shunday zamonaviy tibbiyot maskanining barpo etilishi bizni juda quvontirdi, — deydi shu yerlik Jovli ota Ergashov. — Ilgari bir necha kilometrga qatnab, vaqt sarflab, mablag‘ yo‘qotib, qisqasi, qiynalib yurardik. Bu maskan bizning qishlog‘imizga ham xizmat ko‘rsatadi. O‘n besh daqiqalik yo‘l yursak, yetib kelamiz. Endilikda bemalol kelib, o‘z poliklinikamizdan foydalanib ketaveramiz. Bu yerda tez yordam xizmati ham bor ekan. Hatto tishni davolash uskunalarigacha keltirilibdi. Turli zamonaviy tibbiy tekshiruv apparatlari kelgan. Birgina shu poliklinika, bilishimcha, to‘rt mahalla ahliga xizmat ko‘rsatadi. Son jihatdan olganda, mavjud joylar aholiga torlik qilardi. Ko‘pincha muolaja olish xonalarida ayol ham, erkak ham birga o‘rtaga biror parda yoki boshqa narsadan to‘siq qo‘yib

davolangan. Bugun esa kattalar va bolalar uchun alohida xonalar mavjud. Hech bir muammo yo‘q.

Keng ko‘lamli ishlar har bir manzilga kirib borayotgani aholini mamnun etmoqda. Shu qatorda sohada xizmat ko‘rsatayotgan shifokorlarning ham og‘iri yengil bo‘lib, o‘z vazifasini rejadagidek bajarishiga shart-sharoitlar yaratilmoqda.

— Joriy yilgi istiqloq bayrami biz uchun qo‘shaloq ayyom sifatida nishonlandi, — deydi 38-sonli “Hazara” oilaviy poliklinika mudiri Jo‘raqul Jumanov. — Umumiy qiymati 4,5 milliard so‘m bo‘lgan oilaviy poliklinika binosi qishloq ahliga bayram oldidan ajoyib tuhfa bo‘ldi. Qulaylik tomoni — deyarli barcha tibbiy jihozlar berildi. Ayrim tashxislarni bemalol shu yerning o‘zida qo‘yishda muammo bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ilgari davo muolajalarini olib borish uchun xonalar yetishmas, bemorlar kutib qolardi. Endilikda bu holatlarga chek qo‘yladigan bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, biz, shifokorlar uchun ham, aholi uchun ham barchasi ajoyib.

Bayramona ko‘tarinlik nafaqat Hazara qishlog‘i aholisi uchun, balki unga yondosh Achchig‘i qishlog‘ida ham qizg‘in tantana bo‘ldi. Ya‘ni shu kuni bu qishloqda 38-sonli “Hazara”

oilaviy poliklinikasining filial binosi zamonaviy qiyofa kasb etgan holda ochildi. Ushbu filialda ham barcha shart-sharoit yaratilibdi.

— Bu yilgi bayram, ayniqsa, biz, tibbiyot xodimlari uchun o‘zgacha keldi, — deydi Shahrisabz tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Zafar Esonov. — Davlatimizning sohaga qaratayotgan alohida e’tibori sabab tizimda shu qadar katta o‘zgarishlar bo‘lyapti, tibbiyot xalqqa tobora yaqinlashmoqda. Jumladan, Hazara qishlog‘ida 38-oilaviy poliklinika va unga yondosh Achchig‘i qishlog‘ida uning filiali ochilishi shu yerlik aholi uchun juda foydali bo‘ldi. Elning tibbiy xizmatdan rozi bo‘lishini o‘ylab, 50-yillarda qurilgan binolar buzilib, yangi zamonaviy binolar qad ko‘tardi, kerakli asbob-uskunalar bilan ta’minlandi. Endi aholi uzoq masofa bosib, tuman markaziga qatnashiga hojat qolmadi. UTT, EKG apparatlari, fizioterapiya muolajalari, stomatologiya xizmati, zamonaviy laboratoriya analizatorlari shu yerning o‘zida muhayyo. Kunduzgi stasionar davolanish uchun xalqimizga juda qulay. Endi o‘ta og‘ir kasallargina tuman markaziga bormasa, qolgan holatda bunga hojat qolmadi. Ushbu loyihalarga 7 milliard so‘mga yaqin mablag‘ sarflandi. Bizdan esa faqat xizmat qilish qoldi. Albatta, bunday joyda ish ham yaxshi bo‘ladi.

Shahrisabz tumanida bugungi kunda faoliyat yuritayotgan 24 ta davlat tibbiyot muassasasi tomonidan oxirgi 3 yillikda aholi uchun 13 milliard 590 million so‘m qiymatdagi tibbiy yordam ko‘rsatildi. Tuman markaziy shifoxonasida hamda uning tasarrufidagi 12 ta obyektini yangidan qurish va ta’mirlash uchun 45 milliard so‘m sarflandi.

Hozirgi kunda eskurgan “Damas” avtomashinalarining o‘rniga 6 ta “Volkswagen” rusumli tez tibbiy yordam mashinalari olib kelindi. Tuman aholisiga tibbiy xizmat sifatini oshirish maqsadida tibbiyot muassasalari Osiyo taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan 2,9 milliard so‘mlik tibbiy uskunalar bilan ta’minlandi. Eng asosiy, olis hududlarda ham sharoitlar yaratilishi natijasida aholining roziligi ortib, turmush tarzi yaxshilanoqda. Har bir manzil farovonlikka yuz tutmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Shukrona

EZGULIK YO‘LIDA SOBITQADAMLIK

Birinchi Prezidentimiz vafot etgach, mamlakatimizni obro‘sizlantirish, milliy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinishlar bo‘ldi. Bularning oldini olish uchun yurtimiz sha‘nini bor kuchi va irodasi bilan himoya qiladigan yo‘lboshchi kerak edi. O‘sha paytda Bosh vazir vazifasida ishlayotgan Shavkat Mirziyoyev ana shunday og‘ir, zalvorli yukni yelkasiga olib, oldinga chiqdi va qisqa fursatda xalqning ishonchini, mehrini qozondi. Bo‘lib o‘tgan Prezident saylovida eng yuqori ovoz to‘pladi. Bu o‘z-o‘zidan amalga oshgani yo‘q, albatta.



Odiljon IBROHIMOV,
Farg‘ona politexnika instituti
professori, qishloq xo‘jaligi fanlari
doktori

Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir vazifasida ishlab yurgan kezlarda xalq ichiga kirib borgan, uning dardi, muammolarini chuqur anglab olgan edi. Bir mutaxassis, olim sifatida

ayta olaman, respublikamizdagi barcha viloyat va ulan tasarrufidagi tuman va shaharlardagi aholi hayot tarzi, yer, suv, hududi, tog‘i, bog‘i, havosi, tuprog‘i, dalasini mukammal bilardi. Markaziy Farg‘onaning 100 ming gektardan ortiq barxan qumli, sho‘rlangan tuproqlarini o‘zlashtirishda tashabbuskor bo‘ldi. Quva tumani anorchilikka, Oltiariq uzumchilikka ixtisoslashtirilib, katta maydonlarda yangi bog‘lar yaratildi. Viloyatlarga qilgan har bir tashrif davomida dehqon-fermer xo‘jaliklariga, xususiy tomorqachilarga tuproq sharoitiga mos ekinlar ekish, har bir qarich yerdan unumli foydalanish, uning ilmiy asosini yaratish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish zarurligini ta’kidlab keladi.

Aniq eslayman, respublikamizdagi ekin turlari bo‘yicha umumiy maydonga nisbatan 17 foizdan 23 foizgacha beda, 75 foizgacha paxta, 3-4 foiz boshog‘li va boshqa dukkakli ekinlar ekilardi. Endi bu ish tizimi o‘zgardi. 2017-2021-yillarda intensiv bog‘lar, anorzorlar, uzumzorlar, anjirzorlar ko‘paydi. Dehqonlarning qo‘li pul ko‘rdi. Yetishtirilayotgan sarxil mevalar hajmi oshdi, sifati yaxshilandi, xaridorlari ko‘paydi. Bugunga kelib dehqonlarimiz ish tajribalari to‘g‘shni mamlakatlarda ham ommalashyapti.

“Xalq davlat idoralarga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasi hayotiy shioriga aylandi. Aslida, bu davlatning muhim strategik dasturi edi. Uni



amalga oshirish yo‘lida qadam-baqadam olg‘a borilmoqda. Prezidentimizning Xalq qabulxonalari va virtual qabulxona tashkil etilgani tufayli fuqarolar bilan mutasaddi idoralarni bog‘lovchi mutlaqo yangi tizim paydo bo‘ldi. So‘nggi yillardagi murojaatlarning salmoqli qismi uy-joy taqchilligi masalasi edi. Shu bois, ipoteka krediti tizimi isloh qilindi va darhol o‘z natijasini ko‘rsatdi.

Qo‘shni davlatlar bilan aloqalar yangi pog‘onaga ko‘tarildi. O‘zbek diplomatiyasida yangi sahifa ochildi. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan do‘stona, konstruktiv aloqalar o‘rnatish, Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikning samarali mexanizmlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tashqi siyosiy faoliyati tubdan o‘zgardi. O‘tgan yillar davomida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash bo‘yicha sa‘y-harakatlar jahon hamjamiyati tomonidan Yevroosiyo mintaqasidagi ijobiy

geosiyosiy jarayon sifatida e’tirof etildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbusi Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida taklif etildi va xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi.

Yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, maktab o‘quvchi va o‘qituvchilari, korxona ishchi-xizmatchilarini ko‘chalarni tozalash, qurilish, qishloq xo‘jaligidagi har xil yumushlarga jalb qilish odat tusiga kirib qolgan edi. Paxta terimi o‘quvchi va talabalar zimmasiga tushgan, har yili 6-7 million odam paxta yig‘im-terimiga majburan safarbar etilardi. Bu eski illatlarga barham berildi.

Jahon xaritasida turli jabhalarda mukammallik sari intilayotgan, aql-zakovati bilan yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratayotgan yangi O‘zbekiston jilolanib turibdi. Unda el-yurt manfaati, oshkoralik,

hamisha el ichida bo‘lish, har bir fuqaro hayotida millat va mamlakat taqdirini ko‘rish, har bir yoshni o‘z farzandidek bilish, yoshlarning ma‘naviy kamolini diqqat markazida tutish kabi maqsadlar mujassam.

Davlat va jamiyat hayotidagi har bir qadam, har bir harakat, har bir hujjat shu maqsadlarga yo‘naltirilgani bilan e’tiborni tortadi. Biz juda tez kechayotgan o‘zgarishlarga ko‘nikib qoldik. Aslida, barcha islohot, muvaffaqiyatlar zamirida qat‘iyat bilan uzoqni ko‘zlagan oqilona siyosat mujassam.

O‘zbekistonda butunlay yangicha iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘naviy, ilmiy-ma‘rifiy iqlim paydo bo‘ldi. Qo‘lga kiritilgan katta-kichik yutuqlardan aslo qoniqmaslik, muvaffaqiyatlarga mahliyo bo‘lmilik, mavjud ahvolni haqqoniy, ishlarni muntazam tanqidiy baholashdek murakkab vazifalarni qo‘yib, marrani baland olishga da’vat qilish ustuvor vazifaga aylandi. Ilgari yillar

davomida paysalga solinib, odamlarni qiynab kelayotgan muammolar qopqog‘i ochildi. Bugun kambag‘allikni qisqartirish xususida oddiy qilib gapiraymiz. O‘z davrida ushbu muammoni tan olish oson bo‘lmagani Prezidentimizning o‘zidan ko‘p bora eshitganmiz. “Yopiq mavzu” bo‘lgan ushbu masala ham endi tizimli yechimini topib bormoqda. Hukumat ish uslubini tubdan o‘zgartirdi. Kambag‘allikdan chiqarish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

“Obod qishloq” dasturi doirasida boshlangan ergu tashabbus eng chekka hududlardagi qishloqlargacha kirib bordi. Mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgardi. Dastur ko‘lami bir necha bor kengayib, mamlakatimiz hududlarida qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi inson sha‘ni, qadr-qimmat hamma narsadan ustun ekanini ko‘rsatmoqda.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida tadbirkorlar va fermerlar uchun ham o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Asossiz tekshiruvlarga chek qo‘yildi, eksportyorlar rag‘batlantirildi, ishlabarmonlik tashabbuslari to‘liq qo‘llab-quvvatlandi.

Islohotlar haqida gap ketar ekan, davlatimizning mehri siyosatiga alohida to‘xtalmasak bo‘lmaydi. Onaga, ayolga e’tibor va e’zoz eng yuqori darajaga ko‘tarilgani, ularning hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilayotgani har birimizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lyapti. Masalan, “MeHR” operatsiyasini olaylik. O‘qlar yomg‘iri yo‘qilib turgan joylarda og‘ir vaziyatga tushib, chorasiz qolgan vatandoshlarimiz Suriya, Iroq va Afg‘onistondan olib kelindi. Ularning aksariyati ayollar va norasida bolalar edi. Bugun ular tinch, emin-erkin zamonada baxtiylar kechirmoqda.

Mamlakatimizda har jabbada amalga oshirilgan ulkan ishlarni nafaqat biz, balki xalqaro jamoatchilik ham ko‘rib, bilib turibdi. Ayrim odamlarda islohotlar barchani birdaniga baxtli, boy, sog‘lom qiladi degan noto‘g‘ri tushuncha bor. Islohotlar doimo yangilik bilan eskilik o‘rtasidagi kurash, yo‘l qo‘yladigan ba’zi xatolar, to‘siqlarni yengib o‘tishdir. Demogichimizki, islohotlar hamma uchun. Shunday ekan, unga munosib, yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo‘lida sobitqadam bo‘lib xizmat qilaylik.



PARIS 2024
PARALYMPIC GAMES

YANGI REKORD, YANGI MARRALAR BAYRAMI

Muzaffar paralimpiyachilarimiz munosib kutib olindi

Boshlanishi 1-betda

Qayd etilganidek, sportchilarimizning XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtiroki, ular o'rtatgan yangidan yangi rekordlar va shunga mos ravishda qo'lga kiritgan medallar, umuman, jamoalarimizning har ikki yirik musobaqada eng kuchlilar orasida yuqori o'rinni egallagan mamlakatimizda har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga o'z salohiyati, iqtidorini namoyon etishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi sa'y-harakatlarning o'ziga xos bahosidir. Boshqa tomondan esa yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning yorqin istiqbolidan dalolat, ayni paytda ortga qaytmas tus olgan yangilanish jarayonlari shiddatiga mos natijadir.

Darhaqiqat, O'zbekiston davlatlarning o'ziga xos kuch-qudrati, taraqqiyot yo'li, yorqin kelajagi namoyoni sifatida ko'rilmuvchi nufuzli to'rt yillik musobaqalarda medallar jamg'arish bo'yicha "Top-15" talikka kirdi.

Endi bevosita Paralimpiya o'yinlari mavzusiga qaytadigan bo'lsak, 28-avgustdan 8-sentyabrga qadar butun dunyo nigohi Parijga qadalganini alohida qayd etish joiz. Negaki XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida dunyoning 168 mamlakatidan tashrif buyurgan eng kuchli para atletlar o'zaro kuch sinashdi. E'tiborlisi, O'zbekiston delegatsiyasi ushbu musobaqada o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etib, bu boradagi rekordini yangiladi. Parij maydonlarida 10 marta madhiyamiz yangradi, 26 bor bayrog'imiz baland ko'tarildi.

Jumladan, matonatli sportchilarimiz murosasiz bellashuvlarda ilk bor 10 oltin, 9 kumush va 7 bronza medalni qo'lga kiritib, bundan oldingi Paralimpiya o'yinlaridagi natijasini yaxshiladi.

Ushbu natija bilan delegatsiyamiz Paralimpiya o'yinlarini yuqorida aytib o'tganimizdek, 168 mamlakat orasida 13-o'rinda yakunladi. E'tiborlisi, O'zbekiston Osiyoda uchinchi, MDH, Markaziy Osiyo mintaqasi, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida esa birinchi o'rinni egalladi. Tokio shahrida bo'lib o'tgan bundan oldingi XVI Paralimpiya o'yinlarida esa mamlakatimiz vakillari 160 dan ziyod davlat o'rtasida 16-, Osiyo qit'asi hamda MDH miqyosida 4-o'rinni egallagan edi.



Bundan tashqari, mazkur Paralimpiya o'yinlari jamoamiz uchun ko'plab jihatlar bilan yodda qoladigan, sportimiz tarixiga muhrlanadigan bo'ldi. Jumladan, tarixda ilk bor 65 para atletimiz Paralimpiya o'yinlariga 113 ta litsenziya qo'lga kiritdi. Bu ham jamoamizning o'ziga xos rekordi hisoblanadi. Chunki paralimpiyachilarimiz 2016-yil Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarga 32 ta, Tokioda bo'lgan o'yinlarga esa 55 ta litsenziya qo'lga kiritgan.

"Parij — 2024" musobaqasining yana bir ahamiyatli tomoni, delegatsiyamiz birinchi bor Paralimpiya o'yinlarida 9 ta sport turida ishtirok etdi, Paralimpiya o'yinlari tarixida birinchi marta para yengil atletikachilarimiz 16 medal bilan umumjamoa hisobida 2-o'rinni, para taekvondochilarimiz esa 3 medal bilan umumjamoa hisobida 3-o'rinni egalladi.

Bunda para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtasida T11 klassida uzunlikka sakrash bahsida 5,24 metr natija bilan Paralimpiya o'yinlari rekordini o'rnatgan Asila Mirzayorova, 3 karra Paralimpiya o'yinlari g'olibi Husniddin Norbekov, eng yosh Paralimpiya o'yinlari sovrindori sifatida tarixga kirgan Shaxina Yigitaliyeva, 2 karra Paralimpiya o'yinlari g'olibi Sherzod Namozov, para yengil atletikachilarimiz Tolibboy Yo'ldoshev, Nurxon Qurbonova

kabi matonatli sportchilarimiz qo'lga kiritgan tarixiy g'alabalar katta ahamiyatga ega.



— Avvalo, oldimga qo'ygan asosiy maqsadim — Paralimpiya o'yinlari g'olibi bo'lishga erishdim, — deydi F12 yadro uloqtirish bahslarida oltin medalni qo'lga kiritgan sportchimiz Elbek Sultonov. — Bundan oldingi Tokio musobaqalarida bronza medalga sazovor bo'lgan kunimdan boshlab, chempion bo'lish maqsadi yo'lida ushbu nufuzli to'rt yillikka tayyorlandim. G'oliblik uchun mamlakatimizda biz kabi sportchilarga zamonaviy sharoitlar yaratib berilgan, ayniqsa, davlatimiz rahbarining musobaqa jarayonida ham sportchilarni qo'llab-quvvatlab, telefon orqali muloqot qilgani, dalda bergani bizga katta kuch, ishonch, motivatsiya berdi. Bularning barchasini oqlaganimiz, yuzimiz yorug' bo'lib Vatanga qaytib kelganimizdan juda juda xursandmiz. Bizni qo'llab-quvvatlagan barcha yurtdoshlarimizga katta rahmat.

Bunday tarixiy natijaga osonlikcha, o'z-o'zidan erishilmaydi, albatta. Shu ma'noda, hech mubolag'asiz aytishimiz mumkinki, ushbu erishilgan olamshumul yutuqlar zaminida mamlakatimizda Paralimpiya harakatiga qaratilayotgan alohida e'tibor va yaratib berilayotgan sharoitlar turibdi.

— Aslini olganda, oilaviy sportchilarmiz, — deydi Paralimpiya o'yinlari g'olibi Nurxon Qurbonovning otasi G'ulomjon Bozorov. — Barcha farzandlarim qatori Nurxonni ham yoshligidan sportga qiziqtirib, imkoniyatiga mos tarzda shug'ullanirib kelganman. Albatta, uy yoki qishloq sharoitida yaxshi sportchi tarbiyalash mumkindir, lekin jahon chempionlarini yetishtirish uchun davlatning e'tibori zarur bo'ladi. Shu ma'noda, qizimning Paralimpiya o'yinlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, oltin medalni qo'lga kiritgani zaminida ham mamlakatimizda sportga qaratilayotgan katta e'tibor, yaratib berilayotgan sharoitlar, ayniqsa, Prezidentimizning alohida qo'llab-quvvatlovi turibdi deb o'ylayman. Xonadonimni cheksiz baxt va quvonchga to'ldirgan ushbu g'alaba uchun barcha-barchaga minnatdorligimni bildiraman.

Prezidentimiz 2021-yil 10-sentabr kuni XVI Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan sportchi va murabbiylar, Milliy paralimpiya qo'mitasi va sport federatsiyalari rahbarlari, paralimpiyachilarning ota-onalari bilan uchrashuvda Tokioda erishilgan natijalarni

Iftixor

G'ALABANGIZ – INSONIYAT SAODATI!

Parij–2024. XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari g'oliblariga

*Jonim bilan boqdim xorij tomonlarga,
O'g'il-qizim ketgan Parij tomonlarga.*

*Bu maydonda chin matonat jangi borar,
Ham shijoat, ham jasorat jangi borar.*

*Tomirdagi ajdodlarning qoni uchun
Buyuk Vatan, buyuk millat shoni uchun!*

*Hayot — maktab, unda hamma tolib bo'lar,
Hayot — kurash, kim mag'lub, kim g'olib bo'lar.*

*Asila-yu Muslima dil hayratidir,
Jahon ichra O'zbekiston nusratidir!*

*Asad, Sherzod, Guljan, Kumush dilbandlarim,
Alpomishga, Oybachingga monandlarim.*

*Shahina sen, Qaldirg'ochday qizim-da san,
Jonim, manim ko'zimdasan, so'zimdasan.*

*Hech kim orni polvon kabi suymagaydir,
Zafar bayrog'ini olmay qo'ymagaydir.*

*G'alabalar samari bir nafasdadir,
Tolib, Nurxon sizga olam havasdadir.*

*Har kim yashar Xudo bergan yumush bilan,
Xiroj to'lar jahon oltin-kumush bilan!*

*Dovrug'ingiz olamlarni tutdi bu kun,
Siz yudingiz, ona Vatan yutdi bu kun!*

*Siz keldingiz, yangi shiddat-shahdga to'lib,
Qarshingizda el turibdi baxtga to'lib.*

*Jahonni lol etdi Vatan mahobati,
G'alabangiz — insoniyat saodati!*

G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

tibbiyoti, diyetologiyasini chuqur tahlil qilish va o'rganish, talabgorlar orasida ayol sportchilar ulushini oshirish, sport bazalari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan edi.

Shu asosda paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish davomida barcha sportchilarga zarur sharoitlar yaratib berildi, xorijiy o'quv-mashg'ulot yig'inlari tashkil etildi, zarur tibbiy-farmakologik vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlandi. Pirovardida qo'yilgan katta maqsad — tarixiy natijaga erishildi.

Matonatli sportchilarimiz maxsus avtobuslarda poytaxtimiz ko'chalarini aylandi. Paralimpiyachilarimiz yurgan yo'nalish bo'yab minglab yurtdoshlarimiz ularning g'alabasi, xursandchiligiga sherik bo'lib, tantanali marosimga o'zgacha ko'tarinki ruh ulashdi.

O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasida XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlariga Prezident sovg'alari — avtomobil, uy va pul mukofotlari tantanali topshirildi.

Avazbek XUDOYQULOVO,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va
muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari
chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3087.
41369 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 tabqo. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 23:30 Topshirildi — 00:30